

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA AKMEOLOGIK POZITSIYANI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani rivojlanirishning mazmun mohiyati, zamonaviy o'qituvchilarga qo'yiladigan talablarni takomillashtirish, pedagogika oliygohlaridagi mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi imkoniyatlari va mavjud holatlaridan kelib chiqib, mazkur ta'lim muassasalarida o'qitish tizimiga innovatsion texnologiyalarining joriy etilishi jarayonlari mavzuning muammosi sifatida ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Akmeologiya, pozitsiya, mazmun, mohiyat, talabalar, innovatsion metodlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, akmeologik moyillik.

АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ РАЗВИТИЯ АКМЕОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЗИЦИИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье на основе современной ситуации и анализа развития акмеологической позиции у будущих учителей, совершенствования требований к современным педагогам, возможностей и существующих условий в процессе подготовки специалистов в педагогических вузах разработана инновационная система обучения в этих вузах. В образовательных учреждениях была предпринята попытка раскрыть процесс внедрения технологий как проблему темы.

Ключевые слова: Акмеология, позиция, содержание, сущность, студенты, инновационные методы, современные информационные технологии, акмеологическая тенденция.

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF DEVELOPMENT OF ACMEOLOGICAL POSITION IN FUTURE TEACHERS

Abstract: In this article, the current situation and analysis of the development of the acmeological position in future teachers, the improvement of the requirements for modern teachers, the opportunities and current conditions in the process of training specialists in pedagogical universities, and the current state of innovative technologies in the teaching system in these educational institutions. an attempt was made to reveal the processes of development as a problem of the topic.

Key words: Acmeology, position, content, essence, students, innovative methods, modern information technologies, acmeological tendency.

Respublikamiz mustaqilligi va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish – zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash va mazkur jarayon samaradorligini ta'minlovchi bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirib, rivojlanrib, takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo'nalishi mustaqil fikr yurita oladigan, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo'ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilaydigan mutaxassislar tayyorlash masalalariga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Bu esa pedagog kadrlar tayyorlash, modernizatsiyalash va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirib borishning asosiy mazmuni - ularda kasbiy tayyorgarlikni shakllantirib borilishidir.

Kasbiy tayyorgarlik – zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish asosida yuzaga keluvchi mutaxassis ijtimoiy kompetentligining o'ziga xos ko'rinishi sifatida izohlanadi.

Kasbiy tayyorgarlik o'z-o'zidan yuzaga kelmay balki aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni qamrab oladi. Shaxsda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishi dastlab kasbga xos tasavvur, tushunchalarni tarkib topganligi bilan belgilansa, keyinchalik mutaxassislikka oid bilim,

malaka va ko'nikmalarning o'zlashtirilishi, kasbiy sifatlarning qaror topishi hamda kasbiy moslashish darajasi bilan izohlanadi.

Kasbiy tayyorgarlik maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi.

Akmeologik pozitsiyani rivojlantirish masalalari A. N. A. Ribnikov, B. G. Ananyev, A. A. Derkach va A. A. Bodaleva, N. V. Kuzmina, M.Ochilov, N.N.Azizzodjayeva, F.R.Yuzlikayev, O.Musurmonova, V.A.Slastyonin, M.G.Davletshin, B.R.Djurayeva va boshqalar tomonidan o'r ganilgan.

Shuningdek, S.Y.Stepanov, A.A.Derkach, V.V.Ilin, S.D.Pojarskiy, N. V.Golovko-Garshina, V.P.Branskiy, I.I.Zimnyaya, O.A.Kozirevalar akmeologiyani mustaqil fan sifatida falsafiy assoslarni, shaxs fenomeni, akmeologiyani kasbiy muvaffaqiyatga erishishdagi o'rni, akmeologiya fanining predmetini aniqlash, ijtimoiy sinergetika va akmeologiyaning uyg'unligi, kasbiy rivojlanishning akmeologik asoslari hamda akmeologik yondashuv asosida o'qituvchi kompetentligini rivojlantirish muammolarini tadqiq etishgan.

Kuzmina N.V, Pojarskiy S.D., Pautova L.E., A.K.Markovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida akmeologiyaning ilmiy asoslari, mutaxassis kasbiy faoliyatining akmeologik sifatlari, o'qituvchi kasbiy kompetentligining psixologik tahlili kabi muammolar yoritilgan. akmeologiya B.G.Ananyev, V.M.Bexterev, akmeologiya tushunchasi V.N.Myasishev, E.S. Kuzmin, N.V. Kuzmina, N.A. Ribnikov va boshqalar tomonidan yaratilgan yangi fan, degan nazariyalar mavjud. [5; 41-b]

Ushbu maqola umum qabul qilingan metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, talabalarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirishning mazmun mohiyati tadqiq etilgan.

Oliy ta'lif muassasalarining pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimining o'ziga xosligidan kelib chiqib, tadqiqot doirasida quyidagi pedagogik psixologik shart-sharoitlarning ta'minlanishi bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllanib borishiga xizmat qilishi aniqlandi:

1. Axborotli-mazmunli sharoit. Ma'lumki, ta'lif mazmuni bo'lajak mutaxassis o'zlashtirishi lozim bo'lgan kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning oldingdan loyihalashtirilgan tizimi bo'lib, bunda DTS, o'quv rejali, takomillashtirilgan ta'lif dasturlari, ma'ruza matnlari, ta'lif texnologiyalari asosidagi o'quv-metodik majmular, ilmiy va o'quv-metodik, elektron darsliklar, nazorat vositalari: ijodiy pedagogik topshiriqlar, vaziyatli masalalar, masofali nazorat, ijodiy loyiha ishlari, mutaxassislik yo'nalishlari bilan bog'langan kurs va loyiha ishlari alohida o'rinish tutadi.

2. Texnologik sharoit. Tadqiqot maqsadi, ya'ni bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirish jarayonini samarali shakl, metod va vositalarini ishlab chiqib, amaliyatga tatbiq etish uchun texnologik sharoit asos qilib olindi. Bunda

- muammoli o'qitish;
- o'yinli texnologiyalar (rolli-ishchan o'yinlar, tadbirkorlik o'inalari);
- trening, videotreninglar;
- muammoli -seminarlar;
- pedagogik muammoli vaziyatlarni echish va tahlil qilish, "Keys-stadi";
- kichik guruhlarda o'qitish, mikro-darslar;
- ijodiy tadqiqotchilik metodlari;
- dars va tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash metodlari;
- autotreninglarni tashkil etish va o'tkazish metodikasining ishlab chiqilishiga alohida e'tibor qaratildi.

Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishning texnologik sharoiti nazariy asoslanganlik, o'quv-tarbiya jarayoni mazmuni va tashkiliy jihatlariga yaxlit yondashuv, tizimlilik, o'qitishda ta'lif oluvchilarning individualligi, kasbiy yo'naliganligi e'tiborga olish kabi tamoyillariga asoslanadi.

3. Refleksiv sharoit. Yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarning natijaviy mahsuli sifatida refleksiv (refleksiya-ortga nazar, tahlil, o'zgarishlar, shaxsning o'z faoliyatini baholay olish darajasi) sharoit muhitining yaratilishiga alohida e'tibor berildi. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishning yo'naltirilgan refleksiv sharoit mazmuni quyidagicha belgilandi:

- faol bilish motivatsiyasini rivojlantirish;
- kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik yondoshuvni qaror toptirish;
- kreativ ko'nikmalarni shakllantirish;

- pedagogik-psixologik, metodik bilimlarni shakllantirish;
- o‘zini – o‘zi anglash.

Jamiyat rivojlanib, yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga qo‘yilgan ijtimoiy talablarining ortib borishi pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimida ham mazmuniy va sifat jihatidan o‘zgarishlar zaruratinini yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammoning dolzarbligini ta’kidlab, birinchi prezidentimiz I.Karimov “Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini, ertaga o‘rnimizga keladigan yoshlarni ma’naviy dunyosini shakllantirishda o‘qituvchi mehnatini qanchalik muhim o‘rin tutishini yaxshi bilamiz. Chunki, o‘qituvchi nainki sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki minglab murg‘ak qalblarga ezgulik yog‘dusini, hayot maktabini uqtiradigan mo‘tabar zotdir” [4; 54-b]

Shuning uchun ham bozor munosabatlari sharoitida oliv ma’lumotli pedagog kadrlarga bo‘lgan jamiyat talablaridan kelib chiqib, malakali mutaxassislar tayyorlash zarurati yanada kuchaydi. Tadqiqot muammosining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish, olib borilgan kuzatishlar va tahlil natijalari OTMLaridagi o‘quv-tarbiya jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirish mazmuni jihatdan katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Ammo, mazkur jarayonga bir tomonlama yondashish mutaxassislarning sifat darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganligi ham amaliyotda tasdiqlandi.

Oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy talablar, demokratik tamoyillar, shuningdek ishlab chiqarishning mutaxassis shaxsiga qo‘yayotgan malakaviy talablaridan kelib chiqib modernizatsiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirishning asosiya mazmuni bu - ularning shaxsiy yo‘nalganligi va kasbiy motivatsiyasi, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo‘lib, mazkur jihatlar ta’lim oluvchilarning tanlangan sohasi asosida ta’lim olishini jadallashtiradi.

Ya’ni, bugungi kunda pedagog mutaxassislar tayyorlash jarayoniga yaxlit loyiha sifatida qaralib, unga nafaqat mazmun, balki o‘qituvchi va talabalar faoliyati birligi misolida yondashish lozim ekanligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirish pedagogik jarayonni samarali tashkillashtirishga nisabatan innovatsion yondashuv zaruratinini keltirib chiqaradi. Bu esa bevosita ijtimoiy muhit bilan bog‘liqdir. Zero sog‘lom ijtimoiy muhitdagina taraqqiyot bo‘lib, har tomonlama etuk “akme” darajadagi shaxsni shakllanishiga pedagogik-psixologik omillar va zaruriy shart-sharoitlar yaratilgan bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishning mazmunini akmeshaxs tushunchasi bilan bog‘liqdir.

Xulosa o‘rnida, bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirishning mazmuni talabalarning o‘zlashtirgan bilim, ko`nikma va malakalarini amaliyotda yuqori darajada qo‘llay olishida namayon bo‘ladi. Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiya yo`nalishlaridan biri – bu insonning turli sohalarda maqsadli va mustaqil faoliyatini tashkil etishidir. Shunday ekan bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik pozitsiyani rivojlantirishning mazmuni quyidagi axborotli-mazmunli sharoit, texnologik sharoit, refleksiv sharoitlarga alohida e’tibor qaratish orqali ta’limda yanada samarali natijalarga erishish mumkin bo‘ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. –T.: O‘zbekiston. -2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag‘shlangan tantanali marosimda so‘zlangan ma’ruzadan. 2018-yil.
3. Karimov I.A Barkamol avlod –O‘zbekiston kelajagining poydevori. –T.: O‘zbekiston. 1997.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat- engilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Mardonov Q. Sh. Bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik pozitsiyasini shakllantirish texnologiyasi. –T.: Fan. 2019.
6. Tillayeva G. H. Akmeologiya asoslari. O‘quv qo‘llanma «Tafakkur bo‘stoni» Toshkent, 2014. – 126 b
7. Nishanova Z. O‘quvchilarni kreativ fikrleshga o‘rgatish. –T.: TDPU. 2015.
8. Tillayeva G. H Akmeologiya asoslari –Toshkent 2014-y
9. Деркач А.А., Кузьмина Н.В. Акмеология: пути достижения вершин профессионализма. М.,1993. – с.220
10. Маркова А. К. Психологические критерии и профессионализма учителя // Педагогика. 1995, № 6. С. 55–63